

ONA TILI DARSLARIDA BADIY MATNLARNI O'QIB TUSHUNISHDA LUG'ATLARDAN FOYDALANISH

Mamlakat Ibodova,

“Everest” nodavlat ta’lim muassasasi ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi,

Annotasiya. Maqolada matni o’qib tushunish ko’nikmasi ustida olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari bayon qilingan. Unda, asosan, badiiy matnlar tahlilida lug’atlar bilan ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Mumtoz matnlarning o’quvchilar tomonidan o’qib tushunilmasligi ularning mazkur davr adabiyotiga qiziqmaslikka olib kelishi bilan bog’liq muammo va echimlar o’rganilgan.

Kalit so’zlar: matn, o’qib tushunish, lug’at ustida ishlash, savol va topshiriqlar, mumtoz matnlar, badiiy matn, ona tili mashg’ulotlari

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЛОВАРЕЙ В ЧТЕНИИ И ПОНИМАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Мамлакат Ибодова,

*учитель родного языка и литературы негосударственного
образовательного учреждения “Эверест”*

Аннотация. В статье излагаются исследования навыка чтения и понимания текста и их результаты. Основное внимание в нем уделяется развитию навыков работы со словарями при анализе художественных текстов. Были изучены проблемы и решения, связанные с тем, что непонимание классических текстов читателями приводит к их отсутствию интереса к литературе этого периода.

Ключевые слова: текст, понимание прочитанного, работа со словарем, вопросы и задания, классические тексты, художественный текст, уроки родного языка

THE USE OF DICTIONARIES IN READING AND UNDERSTANDING LITERARY TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Mamlakat Ibodova,

*teacher of native language and literature of a non-state educational institution”
Everest»*

Annotation. The article presents research on the reading and understanding skills of the text and their results. It focuses on the development of skills in working with dictionaries in the analysis of literary texts. The problems and solutions related to the fact that the misunderstanding of classical texts by readers leads to their lack of interest in the literature of this period were studied.

Keywords: text, reading comprehension, working with a dictionary, questions and tasks, classical texts, literary text, native language lessons

Davlatning taraqqiyoti uning yoshlariga berilayotgan ta’lim sifati, o’quvchilarining egallagan ko’nikma va malakalariga bog’liq bo’lib qolmoqda. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro talablari orasida o’qish savodxonligi, matni tushunish ko’nikmasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, xalqaro baholash tadqiqotlari o’quvchida hayotiy ko’nikmalarning shakllanganlik darajalarini turli aspektlarda

tekshirib ko‘radi. Jumladan, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini ham. Ma‘lumki, o‘qish savodxonligi matn ustida ishlashni taqozo qiladi. Jahon tajribasida matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari ko‘pincha lug‘atlarga bog‘lanadi.

Mamlakatimiz xalqaro baholash dasturida qatnashishi ko‘zda tutilmoqda. Unda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ham tekshirib ko‘riladi. Shu nuqtai nazardan o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasi bugungi kun ona tili va adabiyot ta‘limining asosiy maqsadiga aylandi. O‘quv lug‘atlaridan dars jarayonida samarali foydalanilsagina o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matn bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlanish sur‘ati oshadi.

Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1], – deb ta‘kidlanishi ona tili ta‘limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining «Ona tili» darslarida ham, oliy ta‘limda ham negadir o‘quv lug‘atlaridan samarali foydalanilmaydi bu o‘zbek o‘quvchilariga o‘z ona tilini mukammal bilmaslikka, undan unumli foydalana olmaslikka sabab bo‘lmoqda.

Ta‘lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki insonlar taraqqiyotning hamma davrlarida ham «Nimani o‘qitish kerak?» degan muhim savolga hamisha javob izlab kelgan va bu jarayon davom etmoqda. Ta‘lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. I.Ya. Lerner [2] va M.N. Skatkin [3] kabi ayrim olimlar ta‘lim mazmuni deganda o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida tushunsa, boshqa bir guruh olimlar bu tushuncha bilan birga uni o‘rganish usullarini ham angelaydi.

Respublikamizda ham ona tili o‘qitish kompetentsiyaviy yondashuvga asoslandi, tayanch kompetentsiyalar negizida har bir fanga doir alohida kompetentsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. O‘zbek tili faniga doir esa nutqiy va lingvistik kompetentsiyalar tanlandi, tilning barcha sathlarni o‘qitish shu ikki mezonga asoslandi. O‘quvchilarning ona tilidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini xalqaro baholash tizimlariga moslash, shu talablar asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda. Darslik mualliflari tomonidan o‘quvchi ma‘nosini bilmaydigan so‘zlar to‘g‘ri ajratilgan va uning ma‘nolari tanlash imkoniyati qoldirilgan holda keltirilgan.

Lug‘at bilan ishlashda nafaqat she‘riy, balki nasriy matnlar ham baravar tahlil obyekti sifatida tanlangan. Jumladan 29-darsning “Matn va lug‘atlar ustida ishlash” rukni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdil qilingan “Tilshunos va qayiqchi” hikoyati tahliliga bag‘ishlangan: 29.1-topshiriq. Matnni diqqat bilan o‘qing.

TILSHUNOS VA QAYIQCHI

Bir kun mag‘rur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib narigi qirg‘oqqa o‘tmoqchi bo‘ldi. Sohilda yo‘lovchi kutib turgan qayiqchilardan biriga yuzlandi. Qayiq yaqinlashdi. Olim qayiqqa o‘tirdi. Dengizni tomosha qilib ketayotgan olim qayiqchidan so‘radi:

- Sen hech nahv o‘qiganmisan?
- Yo‘q men johil bir qayiqchiman.

Olim:

- E voh, juda xafa bo‘ldim. Demak, yarim umring behuda o‘tibdi, – deya achinib

qayiqchiga qaradi.

Shu vaqt dovul turdi. Keyin dengizning o'rtasida chayqala boshladi, qayiqchi butun kuchi bilan xavfdan qutulish uchun harakat qildi. Bo'ron borgan sayin kuchayar, qayiq esa cho'kish arafasida edi. Shu vaqt qo'rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan qayiqchi so'radi:

– Ey, har narsani bilgan olim do'stim. Suzishni bilasanmi?

Yo'q javobini olgan qayiqchi:

– Voh, voh, sen umringni behuda sarflabsan. Hozir butun umring ketdi. Chunki birozdan keyin qayig'im cho'kadi. Yaxshi bilginki, bu yerda hozir nahv (grammatika) emas, mahv ilmi lozim. Agar mahv ilmimi bilsang, qo'rqmasdan dengizga sakra, – dedi. [4]

(Jaloliddin Rumi, "Masnaviy")

29.1-mashq. Matnga mos reja tuzing. So'zlarni ma'nodoshi bilan almashtiring. Bunda ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalaning. Reja asosida matnni ravon nutq bilan og'zaki hikoya qiling.

29.2-topshiriq. Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va yodlang: 1) tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha; 2) o'qimagan, savodsiz kishi; 4) kuchli shamol; 5) yomg'ir aralash kuchli shamol; 6) daf qilish, yengish.

Mazkur matn tahlilida o'quvchiga berilgan topshiriq ikki bosqichdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Birinchi holatda ma'nodosh so'zlar lug'ati bilan ishlash topshirig'i berilgan bo'lsa, ikkinchi holatda izohli lug'at bilan ishlashga yo'naltiriladi.

O'quvchiga 20 asr boshlaridagi «Adabiyot nudur?», «Turkiy Guliston yoxud axloq» kabi asarlar matnini tushunish imkoniyati 34-darsda beriladi. Bu o'rinda ham izohli o'quv lug'atiga katta ehtiyoj borligi sezilib turibdi:

34.1-mashq. Matnni diqqat bilan o'qing. Unga mos mavzu tanlang.

Afv deb kechurmakni aytilur. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo'yniga olub, o'kunub, kechurmakni so'rasa, afv qilmak lozimdur. Chunki afv yaxshi xulqlarning afzali, insoniyatning fazilatidir. Janobi Haq Qur'oni karimda afvni maqtab madh qilmishdur. Olijanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qusur va qabohatini bo'yniga olub uzr aytsa, afv qilur, kechirur. Kattalik va ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmakda emas, balki afv qilmakdadur.

Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub dilini og'ritdi. Mahmud Ahmaddan o'chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o'ldi. Holbuki, har ikkisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikkisi ham g'amlik va parishon bo'ldi. Bir yomonlik ikki bo'ldi. Agarda Ahmadning qabohatiga Mahmud afv mukofotini bersa, ikkisi ham shod-u masrur o'lur hamda Janobi Haq afv qiluvchilarni suyar. O'zi ham afv, mag'firat qiluvchidir. No'shiravon: "Bir gunohkorni afv qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman", – demish.

(Abdulla Avloniy, "Turkiy guliston yoxud axloq")

Tarixiy mavzuda yozilgan asarlar matni garchi hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lsa-da arxaik so'zlarga boy bo'ladi shuning uchun bunday matnlar asosida til o'rganayotganda yoki adabiyot darslarida lug'atlardan faol foydalanish tavsiya etiladi. 47-48-darslar uchun tanlangan matn ham 15-asr voqealarini aks ettirgani bois uni tushunish uchun eskirgan so'zlar o'quv lug'ati zarur bo'ladi:

47-48.1-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

OHANGLARGA YO'G'RILGAN SO'ZLAR

Tashqari eshikdan ta'zim qilib kirgan choshnagir ayol ovozini qo'rquv bilan pasaytirib xabar berdi:

– Osmonda yulduzlar siyrak qoldi. Hademay tong yorishur. Hazrati oliy saharliksiz qolurlarmu?

Tong otib, azon aytilgandan so'ng ro'za o'z kuchiga kiradi, hech kim hech narsa yeb-ichishi mumkin bo'lmay qoladi. Uzun va issiq yoz kunida podshohni saharliksiz qoldirish begimlar uchun o'zlari och-nahor qolishlaridan qo'rqinchliroq edi.

... Osmon oqarib qoldi. Tong yorishgan sari qandildagi shamlarning nuri xira torta boshladi.

Azon aytadigan payt o'tib boryapti. Arkdan tashqaridagi masjidning imomi koshinlik minoraga chiqib, bakovulning ishorasini sabrsizlik bilan kutyapti. Axir Mirzo hazratlari saharlik qilib ulgurmasdan, azon aytish xatardan xoli emas. Ovqat yeyilib, choyga o'tilganda Umarshayx mirzo xotinlariga vaziyat qanchalik og'irlashayotganini aytib berdi.

Shu payt masjid tomondan azon tovushi eshitildi. Choy ichayotgan Xonzoda begim shoshilib piyolasini dasturxonga qo'ydi. Umarshayx mirzo xotinlariga bir-bir qarab, dedi:

– Mo'ysafidlar: “To'rt muchang butun bo'lsin”, - deb duo qilurlar. Fotima Sulton, Qutlug' Nigorxonim, Qorako'z begim, farzandlarimiz Xonzoda begim, Jahongir mirzo – har biringiz oilamizning aziz bir muchasidirsiz. Istaymenki, bu mushkul vaziyatda hamma muchalarimiz butun bo'lsin, bir-birlariga mehr-u shafqat ko'rsatsin. Ilik o'z o'rnida aziz. Ko'z o'z o'rnida mo'tabar. Agar ko'z bilan ilik bir-biriga nizo qilsa, bundan har ikkisi jabr ko'zur.

(P.Qodirov, “Yulduzli tunlar”)

Uyga vazifa

47-48.5-topshiriq. Qiyidagi izohlardan bakovul, shig'ovul, salom og'asi, dodxo, ponsadboshi, hudaychi so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling: 1) podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz; 2) Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi; 3) Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan shaxs; 4) xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor; 5) Qo'qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor; 6) amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs.

Mualliflar tomonida lug'at ma'lumotlari batafsil berilayotgani o'quvchilar uchun katta imkoniyat, ammo ularning mustaqil izlanishlari uchun ham doimiy yo'naltiruvchi topshiriqlar berib borilishi kerak. Ramziy mazmundagi asarlar matnida tahlil olib borilsa, troplar, ko'chimlar, metoforalar haqida ma'lumotdan tashqari lug'at ham zarur bo'ladi. O'quv lug'atlari sirasida «metaforalar o'quv lug'ati» ham yaratilishi maqsadga muvofiqdir, shunda quyidagi tipdagi matnlarni tushunish qiyin kechmaydi:

52-53.1-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

HAQIQAT VA MAJOZ

Bir kishi quturgan tuyadan jonini qutqarish uchun jar ustiga egilgan ikki shoxga osilib, jar yoqasiga oyoq qo'yadi. Lekin oyog'i ostidagi indan to'rtta ilon bosh chiqarib turganini ko'rib qoladi. Jarning ostiga nazar tashlasa, u yerda ulkan bir ajdaho og'zini katta ochgancha uning tushishini kutib turganligiga, yuqoriga qarasa, oq va qora sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to'xtovsiz kemirayotganliklariga ko'zi tushadi. Bu ahvoldan qutulish chorasini o'ylab turganida shunday yonginasida

asalari uyasini ko`radi va barmog`ini asalga botirib, yalay ketadi. Asalning shirinligi uning boshini shu darajada aylantirgan ediki, natijada u o`zining qanday ahvoldaligini unutib qo`yadi: oyoqlarini to`rt ilonning boshiga qo`yganligi va bu ilonlar uni har lahzada chaqib olishlari mumkinligi, sichqonlar shoxlarni kemirib bitirishlari va shox sinsa, u ajdaho komiga tushishi muqarrarligi xayolidan ko`tariladi. Jaholat pardasi aql nurini to`siq qo`yadi va oz fursat o`tmay, u jarga qulab halok bo`ladi.

(“Kalila va Dimna”dan)

52-53.2-topshiriq. Quyida berilgan so`zlardan foydalanib, matndagi ajratilgan so`zlarning izohini yarating va lug`at daftaringizga qayd qiling: aniq; ilmsizlik; tanglay, og`iz.

61-62.2-topshiriq. Tushunmagan so`zlaringiz lug`atini tuzing va izohli lug`atdan ma`nolarini aniqlang.

61-62.1-mashq. Matndan belgi bildiradigan so`zlarni ajrating.

61-62.3-mashq. Ko`chma ma`noda ishlatilgan so`zlarni toping.

61-62.3-topshiriq. Ushbu matndagi belgi bildiruvchi so`zlarning ma`nodoshini lug`atdan topib, lug`at daftaringizga ko`chirib oling.

Uyga vazifa

61-62.5-topshiriq. Qasd, vajah, taalluq, burodari kirom, say`, ko`shish kabi so`zlarning izohini quyidagilar orasidan aniqlab, lug`at daftaringizga ko`chiring va eslab qoling.

Izoh uchun so`zlar: Albatta amalga oshirish ko`zda tutilgan, jazm etilgan qat`iy niyat; azm-qaror, ahd; uylanish, aloqador bo`lish; sabab, asos; muhtaram, ulug`birodar, sa`y va harakat.

Lug`at bilan ishlashning manashu mexanizmi ancha to`liqroq va nutqiy ko`nikma va malakalarni rivojlantirishga, so`z boyligini oshirishga qulayroqdir. tahlillardan ko`rinib turgani kabi boshqa darslardan farqli tarzda matn mazmunini anglash uchun 10ga yaqin topshiriqlar ishlab chiqilgan bo`lib, aksariyati lug`atga yo`naltirilgan. Keltirilgan so`zlardan tashqari boshqa lug`atlarga ham murojaat qilish talab qilingan.

O`zlashma so`zlar bilan ishlash borasida shu kunga qadar faqat bitta yondashuv amal qilardi, ya`ni so`zning o`zi bilan shug`ullanish. 67-darsda boshqa tillardan o`zlashga so`zlar matnlar tarkibida o`rganilgan:

67.1-topshiriq. Matnlarni diqqat bilan o`qib chiqing.

SAYYOR SO`ZLAR

1. Hindistonning qoramtir changalzorlarini, qalin bambukzorlarini, ya`ni junglini ko`rish uchun ertalab yo`lga chiqish ma`qulligini aytishdi. (Z. Akramov, “Hindiston lavhalari”)

2. Hurmatli jyuri a`zolari, loyihalarga yetti o`lchab, bir kesib baho bering, agar shoshqaloqlik qilsangiz, odamlar kechirishmaydi. (Gazetadan)

3. Achchiq va hidli dorilar alohida jelatin g`ilofida ichiladi. (N. Ismoilov. “Kasallarni parvarish qilish”)

66.2-topshiriq. Matndagi ajratilgan so`zlarning ma`nolarini berilgan lug`atdan o`qing, lug`at daftaringizga ko`chirib yozing va eslab qoling.

1. Jelatin (fr. gelatine – dirildoq, yelimshak < lot. gelatus – muzlagan) Yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda

2. Jungli (ing. jungle < f.-hind. Changalzor, o`rmon)

3. Jyuri (fr. jury - hakamlar guruhi < lot. juro – qasam, ont ichaman; qasamyod qilaman).

Mazkur so`zlarning izohini o`quvchi o`z ko`zi bilan ko`rgandan so`ng kelajakda zarur hollarda uning o`rniga qanday O`zbekcha muqobil topish va qo`llashni

biladi.

2020-yil mazmun va uslub jihatdan takomillashtirilgan 5-sinf «ona tili» darsligida lugʻatlardan foydalanish, darslikning lugʻatga bogʻlanishi qoniqarli emas. 5-sinfda oʻquvchi yoshiga mos boʻlgan lugʻat bilan bogʻliq qiziqarli oʻquv topshiriqlari ishlab chiqilishi kerak edi. Joriy darslikda lugʻat bilan ishlashga qisman oʻrin ajratilgan xolos: 1-dars. 2. Muhammad Yusufning “Ona tilim” sheʼrini toʻliq yodlang.

Lugʻat: nufuz – obroʻ-eʼtibor, taʼsir borilmoqda?

B.Menglijev va boshqalar tomonidan 2020-yil yangi dastur asosida 2-qism sifatida tuzilgan 10-sinf «Ona tili» darsligida esa ayrim mavzulardagina lugʻat ustida ishlash yoʻlga qoʻyilgan:

8.8-mashq. Matnni oʻqing. Oʻz xulosangizni 3 – 4 jumlada bayon eting.

OʻQISH – OʻSISH DEMAK

Abituriyent – hayotini oʻzgartirish uchun yoʻlga chiqqan shaxs. Talaba boʻlmoqchimisiz, unda, albatta, oʻqi. Inson uchun doimo harakatda boʻlmoq tiriklik belgisidir. Shunday ekan, yodingda tut:

1. Hech qachon vaqtim yoʻq, dema. Xohish boʻlsa, vaqt topiladi. Dunyoni boshqarayotgan mashhurlarning sutkasi senikidan ortiq emas.

2. Hech qachon eslab qololmayman, dema. Xotirangni boʻysundir: inson istasa, hammasini yodida saqlaydi.

3. Hech qachon tushunmadim, dema. Tushunish qobiliyati va ong berilgan yagona tirik jon sensan. Oʻzingni hayvonlarga teng tutma.

4. Hech qachon ertaga, dema. Bugunni ertaga topa olmaysan. Ertaning ham oʻz ishi bor. Vaqtni qadrla. Yoʻqotsang, topolmaysan. Uni sotib ham ololmaysan.

5. Barcha chalgʻituvchi vositalardan voz kech. Texnika seni emas, sen uni yaratgansan – unga qul boʻlma.

Har qanday zamonda kitob oʻqigan insonlar film tomosha qilgan odamlar ustidan yetakchilik qilganlar. Tanla: boshqarasanmi, boʻysunasanmi? Oʻzingga ishon. Odam oʻziga ishonmay turib boshqalarni ishontira olmaydi. Senga berilgan imkonni qadrla. Orzu qilma, maqsad qoʻy. Fikrlar dunyoni boshqaradi, sen ana shu fikr egasi boʻl.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutq jarayoni yana qaysi fan sohalarini tomonidan oʻrganiladi?

2. Soʻz qoʻllashda doim ham uslubiy meʼyorlarga amal qilinadimi? Nega?

3. Yozma ishlarda til birligini tanlashda qanday xatoliklarga yoʻl qoʻyish mumkin?

4. Quyidagi soʻzlarning asosiy maʼnolarini izohli lugʻatdan aniqlab lugʻat daftaringizga koʻchiring: angʻiz, beshbel, tashrif, yelvizak, koʻlanka, shaʼn.

Umuman olganda, mustahkamlash uchun berilgan 4 topshiriqdan bittasigina lugʻat bilan ishlashni taqozo qilmoqda. Aytish mumkinki, joriy yilda takomillashgan darsliklarda matn bilan ishlash kuchaytirilgan boʻlsa-da lugʻat bilan ishlashga etarli eʼtibor berilmagan. Oʻquv topshiriqlari tuzishda tizimili ravishda mavzuni lugʻatlar bilan bogʻlab borish lozim. Til lugʻatlar asosida oʻrgatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.

2. B.Menglijev va boshqalar 10-sinf “Ona tili” darsligi 2-qism. –Toshkent. Choʻlpon. 2020. 96 b.

3. Лернер И.Я. Ознакомление учащихся с методами науки как средство связи обучения с жизнью. (К вопросу об исследовательском принципе в обучении) //И.Я.Лернер //Сов. педагогика. 1963. - №10. - С. 15-27.

4. Скаткин М.Н. Современный урок / М.Н.Скаткин, И.Я.Лернер //Нар. образование. 1985. - № 1. - С.102-111.